



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MUSIQA KAFEDRASI

5141000-musiqiy ta’lim yo‘nalishi

4-kurs talabasi Nurullayeva Shahriniso

Eshbutaevnanning bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O‘zbek xalq musiqasining an’anaviy rivojlanish
yo‘llari

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Mirzayev O.O.

Navoiy – 2015

O'ZBEK XALQ MUSIQASINING AN'ANAVIY RIVOJLANISH YO'LLARI

MUNDARIJA

Kirish.....

**I-bob. O'zbek xalq musiqa merosini amaliy
o'zlashtirilishi.....**

1.1. Milliy an'analarning pedagogik mohiyati.....

1.2 Milliylik mavzusi - pedagogika tarixi ko'zgusida....

1.2. O'zbek xalq musiqa ijodini o'rganish.....

**II-bob. O'zbek musiqa madaniyati va uning janr
boyligi.....**

2.1. O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari.....

2.2. Og'zaki an'ana-dagi o'zbek kasbiy
musiqasi xususiyatlari.....

2.3. O'zbek xalq cholg'u musiqasi

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

KIRISH

Mustaqil yurtimizda bo'layotgan tub siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar xalq ta'limi tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qabul qilingan qonuni mazmunida umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor berish va bu ishga ijodkorlik bilan yondoshish talab etiladi. Bunda o'z milliy ma'naviyatini to'g'ri anglagan, xalq ruhiyatini teran his eta oladigan xalqparvar yosh avlodlarni tarbiyalashdek muhim vazifalar kun tartibiga qo'yilgandir, demak umumta'lim maktablarida olib borilayotgan "Musika" darslarini mohiyatan o'zgarilish, ularda asosiy urg'u o'zbek xalqi musiqa ijodiyotiga berilmoq maqsadga molikdir. Chunki xalqimizning milliy kuy-qo'shiqlari zahirida yoshlarni mardlikka, halollik va poklikka chorlovchi hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi oliyjanob tuyg'ular mujassam etilgandir. Albatta, bu kabi ijodiy va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun eng avvalo xalq musiqa ijodini yaxshi bilimdoni bo'lgan malakali mutaxassislar bo'lmog'i lozim.

Mavzuning dolzarbligi: O'quvchilarni o'zbek xalq musiqa ijodini o'qitishdan asosiy maqsad ularlarni an'analarga boy va badiiy yetuk xalq musiqa ijodi namunalaridan barhamand etish hamda shu asosda ularda o'tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg'ularni shakllantirishdan iborat. Ayni vaqtda, ko'p asrlar davomida yashab

kelgan avlod – ajdodlarimiz ma'naviyatining, barkamol rihiyatining sadolardagi in'ikosi bo'lgan milliy kuy, qo'shiqlarimiz yosh avlod qalbidan o'rin olarkan, ularni o'z vataniga, xalqiga sadoqatli va mehr – muruvvatli bo'lishiga, azaliy qadriyatlarimiz va o'ziga xos betakror an'analarimizni e'zozlashga, ona yurt merosining bugungi kundagi haqqoniy vorislari bo'lishga, demakki, istiqloliyat zaruratini teran his etishga da'vat etadi.

Bitiruv ishining maqsadi: Xalq musiqasi vositasida 1-7 sinf o'quvchilarini tarbiyalashni ilmiy- pedagogik jihatdan tadbiq qilish, uni amalga oshirishning pedagogik usullarini nazariy va amaliy jihatdan belgilab berish.

Bitiruv ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqasining imkoniyatlarini o'rganish; Xalq musiqasi vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning mavjud holatini o'rganish; Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning eng optimal shakl va uslublarini ishlab chiqish; Xalq musiqasi alq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha tarbiya ishlari olib borish.

Tadqiqotning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tamoyillar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari, chop ettirilgan

kitoblari va ma'ruzalari, Sharq mutafakkirlari va falsafa taniqli psixolog, pedagog, musiqashunos va falsafa olimlarining bu mavzuda bildirgan fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi tomonidan mavzu bo'yicha qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruqlar, musiqashunoslik bo'yicha to'plangan ilmiy manbalar hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Xalq musiqasi vositasida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari o'rganiladi;

- Xalq musiqasi vositasida o'quvchilarga singdiriladigan milliy g'oyaning mazmuni aniqlanadi.

- Musiq madaniyati darslarida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash imkoniyatlari aniqlab olinadi.

- O'quvchilarni Xalq musiqasi orqali milliy ruhda tarbiyalashning shakl va uslublari o'rganilib, mazkur jarayonning samaradorlik darajasi aniqlanadi.

Tadqiqotning ilmiy – nazariy ahamiyati:

1-7 sinf musiqa darslarida o'quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash mazmunining nazariy asoslari ishlab chiqildi. Milliy kuy-qo'shiqlarni o'quvchilarning ongini o'stirishdagi tarbiyaviy ahamiyati ilmiy pedagogik jihatdan tahlil qilib berildi.

I-BOB.

O‘ZBEK XALQ MUSIQA MEROSINING AMALIY O‘ZLASHTIRILISHI

1.1. Milliy an’analarning pedagogik mohiyati

Demokratik jamiyat qurish prinsiplari tizimida umuminsoniy qadriyatlar, an’analar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tizimda axloqiy mazmundagi milliy an’analar salmoqli g‘rin egallaydi. Zero, allomalarning falsafiy-pedagogik g‘oyalari va qarashlarida yosh avlodning axloqiy kamolotida muhim manba bg‘lishi mumkin bg‘lgan, g‘ziga xos “akkumlyator” vazifasini g‘tovchi ta’limotlar mavjud bg‘lib, undan zamonaviy sharoitda foydalanish uchun uning pedagogik mohiyatini zamonaviy talqinda taqdim etish talab etiladi. Axloqiy mazmundagi milliy an’analarni tarixiy yondashuv asosida falsafiy-pedagogik jihatdan talqin etish, umuman, pedagogika faniga yangicha antropolik yondashish imkonini beradi.

Xalq pedagogikasi zamirida komil inson haqidagi, umuminsoniy qadriyatlar haqidagi, milliy madaniyatning gumanistik merosi haqidagi g‘oyalar mavjud bg‘lib, ularni umumlashgan holda taraqqiyparvar milliy an’analar tarzida talqin etish mumkin. Bu an’analardan yosh avlodni tarbiyalashda, xususan, axloqiy tarbiyada foydalanish ijtimoiy muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, ta’lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Milliy an’analarning pedagogik mohiyatini talqin etish uni falsafiy jihatdan anglashdan boshlanadi. Chunki falsafa pedagogikaning metodologik asosi sifatida keng ma’noda tahlil etish, anglash va baholash imkonini beradi. Aynan masalaga falsafiy yondashuv xalq pedagogikasi, milliy an’analarning yuzaga kelishi va

rivojlanishining umumiy ijtimoiy-tarixiy jihatlarini tavsiflash, uning falsafiy-tafakkuriy qirralarini ochish, xalq pedagogikasining zamiri, asosini tashkil etuvchi g'oyalarni aniqlash imkonini beradi.

Insonlarning dunyo, tabiat, inson, hayot va oxirat haqidagi falsafiy fikrlarini turlicha nuqtai nazardan tahlil etish mumkin: tarixiy-falsafiy, metodolgik, pedagogik-psixologik, ijtimoiy, etnografik va h.k.

Masalaga etnografik yondashuv tri milliy birliklarning pedagogik fikrlaridagi tarbiyaviy xususiyatlarni aniqlashga, xalq pedagogikasini millat umumiy madaniyatining bir bg'lagi sifatida tadbiq etish imkonini beradi.

Milliy an'analarning pedagogik mohiyatini aniqlashda masalaga ijtimoiy nuqtai nazardan yondashish ham muhim omil hisoblanadi. Chunonchi, mazkur yondashuv ta'lim nazariyalari va amaliyotining me'yoriy jihatlariga mos tushmasligi mumkin bg'lgan xususiyat-ommaning ijodiyoti namunalarini ob'ektiv g'rganishga yg'l ochib beradi. Kulturologik yondashuvda esa xalq pedagogikasining etnografik yondashuv kabi millatning madaniy an'analarini, jumladan, masalaning axloqiy me'yor mezonlari nuqtai nazaridan tadqiq etish imkonini beradi. Bu yondashuvlarning barchasi uchun bosh metodologik yondashuv-millat madaniyati, milliy an'analarini, qisqasi, millatning ma'naviy xazinasining yuzaga kelish iyerarxiyasini ochib berishga qaratilishi lozim. Bu, g'z navbatida, pedagogika fanining zamonaviy funksiyalari yg'nalishlarini ham belgilab beradi.

Xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi shuni kg'rsatadiki, turli davrlarda milliy an'analarga, ma'naviy qadriyatlarga turlicha

qarashlar bg'lsa-da, jamiyatning ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi-axloqiy qadriyatlar barcha fanlarning barkamol shaxs tarbiyasiga yg'naltirilgan asosiy vazifasi sifatida qaralgan. Milliy an'alarining mohiyati ham aynan mana shu jihat bilan tavsiflanadi.

Milliy an'analarning pedagogik mohiyati g'zida ommaning pedagogik bilimlari hamda tajribasini mujassam etgan xalq pedagogikasining tadqiqot predmeti ekanligi bilan ham tavsiflanadi, ya'ni xalq pedagogikasi etnopedagogika fanining bosh ob'ekti sifatida milliy an'analarning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini g'rganadi.

Milliy an'analarning pedagogik mohiyati tafsilotlariga xalq pedagogikasi fanining turlicha qarashlari mavjud. Bir guruh olimlar (G.N.Volkov, A.N.Kogan, K.Pirliyev va b.) xalq pedagogikasini muayyan xalqning g'z farzandlari shaxsiyatida shakllantirilishi lozim deb hisoblangan sifatlarni tarkib toptirishda qg'llaniladigan ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari, yg'llari, usullari hamda vositalarining g'zaro aloqadorlikda qg'llaniladigan yig'indisi deb qarasa, ikkinchi guruh tadqiqotchilar (A.Gashimov, Sh.Mirzayev va b.) xalq pedagogikasiga pedagogikaning manbalari va vositalarini kiritish shart emas, degan g'oyani ilgari suradilar. Milliy an'analarni tarbiyaviy fenomen sifatida g'rganish, uning natijalaridan tarbiya amaliyotida foydalanish nuqtai nazaridan, albatta, birinchi yondashuv asosli. Biroq, ikkinchi yondashuvning ham ibratli jihatlari mavjud. Xususan, uning predmeti sifatida tarbiya, ob'ekti sifatida esa inson, jinsi va yoshidan qat'i nazar, shaxs olinadi. Har ikki jihat ham xalq pedagogikasi, milliy an'analarning pedagogik mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Shu g'unda ta'kidlash joizki, xalq pedagogikasi, milliy an'analarining pedagogik mohiyatini aniqlashda G.Filonov, Ya.Xonbikov, A.Izmaylovlarning nuqtai nazarlari ham e'tiborlidir.

Milliy an'analarining pedagogik mohiyatini aniqlashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, unda belgilangan qat'iy qonuniyatlar, umumlashtirilgan bilimlar tizimi, aniq ilmiy terminlari mavjud emas. Xalq donishmandligining terminologiyasi qa'rida mahalliy dialekt elementlari mavjudligi uchun ham u tom ma'nodagi xalq pedagogikasi, hammabop, hamma uchun tushunarli bg'lgan g'ziga xos ta'limotdir.

Milliy an'analarga xos xususiyatlardan yana biri-uning cheklanmagan imkoniyatlariga egaligi, bu imkoniyatlarning ham mazmuni, ham qamrov nuqtai nazaridan doimiy kengayib borishi bilan e'tiborlidir.

Milliy an'alar mazmuni va mohiyatni tavsiflovchi kg'rsatkichlar sirasiga kiruvchi omillardan ularning tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan holda muayyan davr hamda jamiyatning g'zaro munosabatini aks ettirishini alohida kg'rsatish mumkin.

Milliy an'analarining tarbiyaviy qudrati shundaki, unda muhim tarbiyaviy masalalarni hal etishga yg'naltirilgan ijtimoiy, pedagogik va psixologik mazmun mavjud. Ularning mazmunidagi bunday mushtaraklik muayyan jamiyatning muayyan zamon, tarixiy davr uchun muhim bg'lgan tarbiyaviy vazifaning yechimiga kompleks yondashish imkonini beradi.

G'zbek xalqiga xos milliy an'analarining xususiyatini tavsiflovchi kg'rsatkichlardan biri shundaki, u quyidan yuqoriga

tamoyiliga asosan qg‘llaniladi, ya’ni ular oilada, mahallada, shundan keyingina umummillat, umuminsoniy darajadaqg‘llaniladi. Qolaversa, ularning qg‘llanish sohasi keng qamrovligi bilan unda turli yoshdagilar (ota-ona-farzand, kattalar va kichiklar)ga amal qilinishi oilaning mahalla, maktab va jamoatchilik bilan uzviy aloqasini ta’minlaydi. Shu xususiyat bilan milliy an’analar maktabda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga samarali ta’sir g‘tkazadi, maktab va oila g‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Aytib g‘tilganlardan umumiy xulosa chiqargan holda, an’analarning muhim xususiyati uning xalqchilligi ekanligini e’tirof etish mumkin. Zero, an’analar aynan milliy an’analar, urf-odatlarda yaqqol namoyon bg‘ladi hamda qat’iy tarzda saqlanib, avloddan-avlodga g‘tib boradi.

Demak, xalqning ma’naviy boyligi, ijtimoiy tajribasini avloddan-avlodga, zamondan-zamonga uzatuvchi asosiy vosita-an’anadir.

1.2. MILLIYLIK MAVZUSI - PEDAGOGIKA TARIXI KO‘ZGUSIDA

Milliylik - bu eng avvalo har bir xalq, millatning ilg‘or, muttasil rivojlanishiga intilishini belgilovchi ko‘rsatkich, mezondir. Bu jarayon boshqa xalqlar, millatlar huquqlarini cheklanmasdan amalga oshiriladi va shunisi bilan progressivdir. Milliylikka tarixiylik xos bo‘lib, u yoki bu millat vakillarining til, an‘analari, odatlar, badiiy ijodda erishilgan yutuqlarni avloddan avlodga meros qilib qoldirish, o‘zlashtirish, saqlash, boyitishni aks ettiradi. Milliylikning rivojlanishi, takomillashuvi eng avvalo yosh avlodni milliy an‘analarga hurmat, sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni “Milliy sub‘ektligi” darajasini oshirish va milliylikning boshqa milliy madaniyatlar bilan o‘zaro muloqoti, boyishiga bog‘liqdir.

Ma‘lumki, jahon tajribasi bu borada uch yo‘lda-fundamentalizm, modernitsm va reformizm tarzida rivojlandi. Milliy maktab va milliy tarbiya manfaatlari uchun milliy-zamonaviylik mutaraqquy yo‘nalish hisoblanadi.

Matbuot, radio va televideniya vositalarida milliy maktab haqida, maorifda milliy-madaniy qadriyatlarni tiklash, Islom dinining odob-axloqqa doir o‘gitlaridan, hadislardan, foydalanish zarurligi haqida turkum fikr, istaklar bildirildi. Bu bejiz emas, chunki jahon tajribasida dunyoviy, milliy va diniy tafakkurlar uyg‘unligiga erishishning ajoyib namunalari mavjud. Masalan, 1983 yili AQSh kongressining maxsus komissiyasi “Millat xavf ostida” nomli hujjatni qabul qildi. Bu hujjat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘quvchilar orasidagi

boshbodoqlik, o'quv predmentlarini tanlab o'rganilishiga, o'quv tarbiya jarayonida o'qituvchining tashkilotchilik rolini yerga urilayotganligi natijasida o'quvchilarni nazariy tayyorgarlik darajasining keskin pasaygani e'tirof etilgan. Mazkur hujjat qabul qilingach, AQShda ta'lim tizimini isloh qilishga kirishildi va o'quv-tarbiya jarayonini tashkiliy asosga qurish, shu bilan birga diniy-axloqiy qadriyatlardan tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanila boshlandi.

Qiyosiy, tarixiy tadqiqotlar jahon pedagogikasida milliylik masalasi turli talqinlarini ochib beradi. Pedagogika fanlari doktori M.Quronovning tadqiqotlariga ko'ra, Osiyo va Afrikaning milliy istiqbolga erishgan mamlakatlarida ta'lim va tarbiya mazmuni asosan uch yo'nalishda isloh qilina boshlangan; 1) tarbiya va ta'lim rejalari, dasturlari milliylashtirilgan; 2) ta'lim ona tilida olib borila boshlangan; 3) tabiiy-matematek fanlar turkumining roli oshirilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq maktablarni birdaniga isloh qilish mumkin bo'lmaganligi tufayli mavjud ta'lim tizimlarini saqlab qolgan holda tarbiyaviy jarayonni milliy asosga qurish boshlandi. Jumladan, ta'limning ona tilida berilishiga erishildi. Biroq, bunday islohotni amalga oshirishda yuzakiliklarga ham yo'l qo'yildi.

Gveniya, Tanzaniya, Senegal mamlakatlaridagi milliy uyg'onish, ta'lim va tarbiyani milliy asosga qurishda qarama-qarshiliklarga ham duch kelindi. Bu qarama-qarshiliklardan biri-tafakkuri fransuzlashgan mahalliy milliy inglizlar, Vatan istiqboliga befarq, ovruposentrizm tarafdorlarining milliy uyg'onishga qarshi turishlari tufayli sodir bo'ldi. Bu haqda Niger prezidenti Bubu Ama 1968 yili

“Qora rangli fransuzlar”dan ranjib, “Milliy madaniyatimizning qora tanli fransuzlar tomonidan xo‘rlanishi va rad etilishi bizning o‘zlgimizdan uyalishimizga olib keldi”, -degan edi.

Asrimizning 60-70 yillarida Eronlik ma’rifatparvar yozuvchi, pedagog Jalol Ali Ahmad milliylikni unutgan kishi “portretini” chizgan edi. “Bunday kishi”, - deb yozadi Ali Ahmad, “Millatning o‘tmishi, hozirgi hayoti, kelajagi haqida hatto tushunchalarga ham ega emas. U to‘lqin ustidagi xasdek beqaror, oyog‘ini qo‘yib tayanadigan yeri yo‘q, shu sababli shamol qayoqqa essa, u ham shunday o‘zgarib turadi. Unda mustaqil fikrning o‘zi yo‘q... U dunyoda o‘z shaxsiy manfaatidan tashqari barcha narsaga befarq qaraydi. U machitda ham, kinoteatrda ham, partiya yig‘ilishlarida ham xuddi futbol o‘yinining tomoshabini, kuzatuvchisiga o‘xshaydi. Uning chuqur o‘yga tolganini hech qachon ko‘rmaymiz. U do‘stining vafotida ham qatra ko‘z yoshi to‘kmaydi. U har qanday kichik o‘ljani qo‘ldan bermaydi, tortinmay o‘zini otadi... U o‘ziga xoslikdan mahrum. O‘ziga haddan tashqari oro berib, poyafzali, mashinasi, uyi, kiyimining qanday ko‘rinishi ustida tinmay qayg‘uradi. Uni maktab, machit, kasalxona muammolari emas, o‘z uyidagi elektrli kir yuvish mashinasi, ozonatorlarning yaxshi ishlashi qiziqtiradi. U o‘zining uzoq Bender Abbosdagi hamqishloqlarining urf-odatlar haqida biror narsa aytib bera olmaydi. Ammo u sizga Buyuk Britaniya leyboristlar partiyasi o‘ng qanotida bo‘lib o‘tgan sezilar-sezilmas o‘zgarishlarni qoyilmaqom qilib aytib beradi...”

Ma’rifatparvar Ali Ahmad G‘arb yoshlari Yevropaning mexaniklashgan hayotidan bezi haykaltaroshlikda-Afrika primitivizmini, musiqada - jazni, aqliy kamolotda -upanishad,

daosizm va Budda bilan jismoniy koamolotda –hind yoga san’ati, nafosatda - Yaponiya bog’larini yaratishdan lazzatlanayotgan bir paytda ayrim yoshlarning o‘z milliyligini inkor etib, g’arbiylashayotganliklarini tanqid qiladi. Ali Ahmad yosh avlodlar orasida o‘z milliy madaniyatiga befarqlik kasalining oldini olishni maktab, tarbiyadan boshlash zarurligi haqidagi fikri va yo‘l-yo‘riqlarni taklif qildi.

Mustaqil O‘zbekistonning umumiy ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayoni isloh qilinib, bu ishda umumjahon pedagogik yutuqlari bilan milliy pedagogikamizni uyg’unlashtirmoqda. Ana shu uyg’unlik birinchidan, sog’lom avlodlarimizning ma’naviy kamolotiga pedagogik zamin yaratadi; ikkinchidan, O‘zbekiston xalqining umummilliy vatanparvar rolini shakllantirishga xizmat qiladi.

1.3. O‘ZBEK XALQ MUSIQA IJODINI O‘RGANISH

O‘zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an’analari hozirgi kunda ham o‘z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Musiqa merosidan, xalq kuy va qo‘shiqlaridan ilhom olmagan zamonaviy musiqaning biron-bir sohasini topish qiyin. Ommaviy estrada qo‘shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ma’lumki, an’anaviy o‘zbek musiqasi asrlar davomida ikki asosiy yo‘nalishda: folklor va professional yo‘nalishda rivojlanib kelgan. Folklor

musiqasi, mustaqil yoʻnalish sifatida: “xalq musiqasi”, “xalq — professional musiqasi”, “mumtoz musiqa” va boshqa turli nomlar bilan atalib kelingan. Soʻnggi vaqtlarda esa koʻproq “ogʻzaki anʼanadagi professional musiqa” deb yuritilmoqda.

Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqa deganda, eng avvalo, ushbu kasb namoyandalari, mohir sozanda, xonanda va bastakorlarniig ijodiy mahsuloti boʻlmish maqomlar hamda shunga oʻxshash yirik shakldagi murakkab kuy va ashulalar koʻzda tutiladi.

Musiqa merosining har ikkala qatlami ham bir-biriga doimo bogʻliq holda rivojlanib kelgan. Folklor, ogʻzaki professional musiqa uchun ilhom manbai, hayotbaxsh kuch boʻlib xizmat qilgan boʻlsa, oʻz navbatida maqom yoʻllari asosida yuzlab xalq kuy va qoʻshiqlari yaratilgan. Folklor va ogʻzaki anʼanadagi professional musiqani bogʻlovchi eng muhim omillardan biri — ularning ogʻzaki anʼanaga mansubligidir.

Shu bilan bir qatorda, folklor va ogʻzaki anʼanadagi professional musiqaning farqli tomonlari ham mavjud. Bu kollektiv ijod. Mehnat va marosim qoʻshiqlarida va oʻlanlarda ijrochi, tinglovchi, kuy yaratuvchi birlikni tashkil qiladi. Musiqa namunalari esa oʻzining murakkab, barkamol va puxtaligi bilan ajralib turadi. Bu borada etakchi janr hisoblangan maqomlar — monodik (bir ovozlik) musiqa sharoitida, musiqa tafakkurining eng yuksak koʻrinishlaridan biridir. Maqomlarni yuqori saviyada ijro etish puxta bilim, tajriba va alohida mahorat talab qiladi. Bu

asarlarni chuqur idroklash uchun ham ma'lum darajada tayyorgarlik lozimdir.

Musiqiy folklor namunalarining ko'pchiligi, odatda, mehnat va turmush tarziga yoki biron-bir marosimga uzviy bog'liq ravishda joriy qilinadi. Mehnat va marosim qo'shiqlari faqat muayyan sharoitdagina yuzaga keladi va ular hayotning o'zidan olinadi.

Zamonaviy musiqashunoslik fani ham bu borada chuqur izlanishlar olib bormoqda. Og'zaki an'anadagi professional musiqaning tub xususiyatlarini ochish, mohiyatini tushunish borasida olimlar o'tgan asrning boshlaridan musiqa merosini muntazam va atroflicha o'rganish XX-asrning 20- yillaridanoq boshlangan. U, asosan, uch yo'nalishda o'rganilgan.

1. Musiqa merosini amaliy o'zlashtirish;
2. Xalq musiqasi va maqomlarni to'plash, notaga olish va nashr qildirish;
3. Meros masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borish.

Bu davrdan boshlab an'anaviy musiqani amaliy o'rganish uchun o'quv muassasalari keng joriy qilina boshlangan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg'ona vodiysida tashkil qilingan dastlabki musiqa maktablariga mashhur ustozlar taklif qilingan. Ular og'zaki professional musiqaning kuy va ashula yo'llari hamda maqomlarni yosh ijrochilarga o'rgata boshlaganlar.

1928 yilda tashkil qilingan Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy tekshirish instituti o'z davrida musiqa merosini o'rganish bo'yicha eng katta dargoh bo'lgan. Bu erda rus musiqasining vakillari bilan bir qatorda institutda O'zbekistonning turli joylaridan kelgan mashhur ustozlar ta'lim bergan. Samarqand

ijrochilik maktabining yirik vakili Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Xorazm maqomlarining ajoyib ustози Matyusuf Xarratov, Fargʻona—Toshkent yoʻllarining taniqli ijrochilari Abduqodir Ismoilov va boshqalar saboq berganlar.

Xalq kuylari va maqomlarni notaga olish masalasiga kelsak, maʼlumki, Sharq musiqasining rivojlanish jarayonida turli xil yozuvlar qoʻllanilgan. Bu oʻrinda Safiuddin Urmaviy qoʻllagan nota yozuvi birinchi navbatda musiqa yoʻllarini biladigan ijrochilar uchun yordamchi vosita boʻlib xizmat qilgan. Safiuddin Urmaviyning ud sozi, Komil Xorazmiyning tanbur uchun yaratgan tabulaturalarining asosiy vazifasi ijrochiga tanish boʻlgan kuy va ashulalarni xotiraga keltirishdir. Boshqacha qilib aytganda, bular ogʻzaki anʼanadagi (ogʻzaki rivojlanadigan va tarqaladigan) musiqa sharoitidagi yozuvlar boʻlib xizmat qilgan.

Maqomlarni zamonaviy nota sistemasi asosida yozishga birinchi boʻlib taniqli etnograf va kompozitor V.A.Uspenskiy kirishgan. U 1922 yilda Buxoroga borib, atoqli maqomchi ustozlar-Ota Jaloliddin Nosirov, Ota Gʻiyos Abdugʻaniy va ularning shogirdlari Domla Halim Ibodov hamda Maʼrufjon Toshpoʻlatovlardan notaga yozib olingan “Shashmaqom” Buxoro Xalq respublikasi tomonidan 1924 yilda nashr qildirilgan. V A. Uspenskiy Shashmaqomining cholgʻu va ashula boʻlimlarini ham tanbur talqinida yozib olgan. Demak, ashula boʻlimlari sheʼr tekstlarisiz berilgan.

1934 yilda musiqashunoslar E.E.Romanovskaya va I.A.Akbarov tomonidan Xorazmga ekspeditsiya uyushtirilib, mashhur maqomchi ustoz Matyoqub Xarratovdan Xorazm

maqomlari fonogrammaga yozilgan va notaga tushirilgan. Keyinchalik maqomlar “Xorazm klassik musiqasi» nomi bilan E.E.Romanovskaya tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan.

Tojikistonning taniqli ijrochilari Boboqul Fayzullaev, Fazliddin Shahobov va Shonazar Sohobovlar Shashmaqomning to‘la tekstini yozib, besh jildlik kitob shaklida atoqli olim V.M.Belyaev tahriri ostida Moskvada nashr qildilar.

O‘zbekistonda maqomlar va, umuman, og‘zaki professional musiqa merosini to‘plashda akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari benihoya kattadir. An’anaviy musiqaning ulkan bilimdoni, ustoz Yu.Rajabiy uzoq yillar davomida izlanishlar olib bordi va maqomlarning mukammal matnini tayyorlash maqsadida uni uch marta qayta ishladi.

Dastlab maqomlar va xalq qo‘shiqlari tarqoq holda “O‘zbek xalq musiqasi” turkumining I—IX kitoblariga kiritilgan. Keyinchalik maqomlar yaxlit to‘plam tarzida “O‘zbek xalq musiqasi»ning V kitobini tashkil qildi. Xalq kuy va qo‘shiqlari va doston yo‘llari alohida kitob qilib chop qilindi.

1958 yilda O‘zbekiston Radio va televidenie komiteti qoshida Yu.Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambli tashkil qilinib, unga respublikaning turli joylaridan maqomdon ijrochilar taklif etildi. Ansamblning ish faoliyati jarayonida oldingi qilingan maqom yozuvlarini yana ham takomillashtirish va yanada mukammalroq yozuvni yaratish maqsadida uchinchi nashri tayyorlandi. Bunda Snashmaqom to‘laligicha olti jildlik kitob bo‘lib chop etildi.

Xorazm maqomlari Matniyoz Yusupov tomonidan notaga olindi. Hozirgi kunda Xorazm maqomlarining M.Yusupov tomonidan tayyorlangan to'laroq variantining ikki jildi nashrdan chiqdi.

O'tgan asrning boshlarida yozilgan dastlabki ilmiy izlanishlar musiqaning ko'proq amaliy masalalariga qaratilgan. Maqomlar haqidagi dastlabki kitoblar Bekjon Rahmon va Matyusuf Xarrotlar yozgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" va A.Fitratning "O'zbek klassik musiqasi" kitoblari aynan shu yo'nalishda bo'lgan. Bu asarlarda ko'proq amaliy masalalar, maqom ijrochiligi, ularning tarkibi va tuzilishiga oid fikrlar bayon qilinadi.

Maqomlar haqida N.N.Mironovning "O'zbek va boshqa sharq xalqlarining musiqa madaniyati" kitobida ham ma'lumotlar berilgan. Bu asarda maqomlar to'g'risida umumiy tushunchalar berilishiga qaramasdan, bu san'atning asl mohiyatini tushunishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, maqomlar "arab – fors dostonchiligi" mahsuloti deb tushunilgan.

E.E.Romanovskayaning "Xorazm klassik musiqasi" kitobiga yozilgan kirish so'zida ekspeditsiya paytida olingan taassurotlar va maqomchilik to'g'risidagi Xorazm ijrochilari orasida yurgan fikrlari ham bayon etilgan.

Buxoro va Xorazm maqomlari to'plamining kirish maqolalarida Yu.Kon va I.Akbarov tomonidan yozilgan maqomlarning cholg'u va ashula yo'llarini lad, ritm va shakl masalalari yoritilgan.

Maqomshunoslikni yangi pogʻonaga koʻtargan ilmiy asarlardan biri Isʼhoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobidir. Maqomchilik masalalari dastlab shu kitobda keng va atroflicha yoritilgan. Tarixiy manbalar, oʻtmish musiqa risolalari, zamonaviy maʼlumotlar asosida hamda musiqa amaliyotiga tayangan holda maqomlarning tarixiy va nazariy masalalari mukammal bayon etilgan. Bu monografiyada maqomlarning rivojlanish jarayoni va ichki tuzilish masalalari keng yoritilib, sheʼriy asosi va ijrochilik muammolari yangicha talqin qilingan. Ilgari jiddiy oʻrganilmagan namudlar masalasi ochib berilgan. Maqomlarning tuzilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi namudlar sistemasi I.I.Rajabov tomonidan ishlab chiqilgan.

XX asr ijodiyotida, mintaqamiz sanʼatining boy tarixida uchramagan keskin burilishlar sodir boʻldi. Uning shiddatli toʻlqinida qadimiy madaniyatimizning butun bir qatlamlariga talofotlar keltirgan oqimlar, yuksalishga yuz tutgan jarayonlar toʻqnashuvida, kutilmagan yoʻnalishlarda milliy musiqaning Gʻarb uslublari bilan qorishgan yangi navlari, shakl va ifoda vositalari yuzaga keldi. Asr oxiriga kelib, oʻzbek musiqasining butun borligʻi oʻzgarib, jahon talablari darajasidagi mustaqil badiiy qiyofasi shakllandi.

Soʻnggi oʻn yilliklarda maqomshunoslikning jonlanishi toʻlqinida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda mavzuga oid Respublika va Xalqaro doiradagi ilmiy anjumanlar oʻtkazildi. Ularning eng nufuzlilari 1974 yil Toshkentda oʻtgan “Maqom, mugʻom va zamonaviy kompozitorlik ijodi” konferensiyasi hamda “Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlarining ogʻzaki anʼanadagi professional musiqasi va zamonaviylik” mavzusida 1978, 1983, 1987 -

yillardagi Samarqand xalqaro simpoziumlarini alohida qayd qilish lozim: 1990 yildan e'tiboran *Yunesko* qoshidagi Xalqaro An'anaviy Musiqa Kengashi tarkibida maxsus "Maqom guruhi". O'tgan davr ichida mazkur guruhning Germaniya (1990, 1992 yy.), Finlandiya (1996 y.), Turkiya (1998 y.), O'zbekiston (2001 y.) mamlakatlarida ilmiy konferensiyalar bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha jabhada bo'lgani kabi san'at borasida ham noyob durdonalarni tiklashga, milliy musiqa madaniyatini jahon uzra ko'z-ko'z etishga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. «Sharq mamlakatlari xalqlari milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'alarini avaylab-asrash, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarish yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy – ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali har ikki yilda bir marta o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Festival ilk marotaba 1997 yilning 25 avgust kuni Samarqanddagi Registon yodgorliklar majmuasida o'z faoliyatini boshladi. Bunda dunyoning turli burchaklaridan kelgan atoqli san'atkorlar, yirik musiqashunoslar, taniqli olimlar va jamoat arboblari, musiqa shinavandalari, san'at bayramining guvohi bo'ldilar.

Mustaqillik davrida ta'lim shakli shamoyili qayta ko'rib chiqilishidan tashqari nafaqat uning ayrim tuzilmalarini qayta muvofiqlashtirishda, balki mazmunini yangilash, shuninshek, to'plangan tajribani inobatga olgan taqdirda ravnaq toptirishda talaygina yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy va madaniy yutuqlarini butun jahonga namoyish etmoqda.

Birgina musiqa sohasida, mamlakatimizda bu borada "Sharq taronalari", "Zamonaviy musiqa", "Simfonik musiqa", "Milliy cholg'ular" kabi nufuzli xalqaro festivallarning o'tkazilishi, qator teatr va musiqa koshonalarining yuzaga kelishi ma'naviy islohotlar yo'lidagi ulkan odimlar ekanligini isbotlashga ortiqcha hojat yo'q.

Toshkentning markazida konservatoriya yangi binosining qad ko'tarishi va unga O'zbekiston davlat konservatoriyasi nomining berilishini esa O'rta Osiyo xalqlarining musiqa tarixidagi jahonshumul voqea deyish mumkin. Bu mo'tabar dargohning ijodiy va ilmiy jarayoniga asos bo'ladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida asrlar osha bizgacha etib kelayotgan mumtoz musiqamiz — maqomlar va xalqimizning musiqiy merosi beqiyos o'rin tutadi.

II-Bob. O'zbek xalq musiqasining an'anaviy rivojlanish yo'llari

2.1.Markaziy Osiyoda G'rta asrlarda musiqa ilmining rivojlanishi

Qadimiy madaniyat g'choqlaridan biri - G'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qg'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy va qadimiy merosga ega. G'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeologlari tomonidan

topilgan yodgorliklar buning dalili bo'lgadi va shu xalqlarning yuksak madaniyatga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida (VII-IX asrlar) boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqa doir yozma manbalar qam kuydirilib, yig'ilib yuborilgan. Shuning uchun G'ربتa Osiyo xalqlarining sog'nuti ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha yetib kelgan. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda xalq ozodlik kurashining avj olishi, yerlik xalqlarning istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatishi va qig'zig'olonlari natijasida arab xalifaligi hukmronligi ag'darilib, mahalliy Tohiriylar va sog'nta Somoniylar davlati barpo etildi. Bu davrda fan, madaniyat va san'atning rivojlanishi uchun bir qadar sharoit yaratildi. G'ربتa Osiyodan chiqqan qator olimlar xuddi shu davrlarda g'ربتa asr fani tarixida g'zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo'ldilar. Fanning boshqa sohalarida ham g'ltmas ilmiy asarlar yaratgan al-Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi ko'pgina buyuk olimlar musiqa nazariyasi («Ilmi musiqiy») bo'yicha ham ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar. Bu olimlar Sharq xalqlarida qig'ltlanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishida hal etuvchi rol o'ynadilar.

Buyuk faylasuf-olim, g'ربتa asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri - Abu Nasr Muhammad al-Forobiy 871 yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tug'ilib, 950 yilda vafot etgan. U, G'ربتa Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo'lib, dastlabki ma'lumotni g'z yurtida oladi. Durustgina bilim egasi bo'lgan al-Forobiy Bag'dod, Damashq shaharlariga, sog'nta Misrga boradi va u yerlarda g'z ma'lumotini oshiradi. Al-Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa

nazariyachisi edi. U, gʻz davrida mavjud bgʻlgan barcha musiqa asboblari chaldirdi. Kuylarni ayniqsa nay va tanburda katta mahorat bilan ijro etardi. Baʼzi manbalarda kgʻrsatilishicha, al-Forobiy **qonun** asbobini ixtiro etgan, gʻsha davrlarda mashhur bgʻlgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan.

Al-Forobiy falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bgʻyicha katta-katta ilmiy asarlar yaratgan zamonasining yetuk olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanib, ularga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa ilmlari kirardi.

Al-Forobiy gʻzining musiqaga bagʻishlangan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari «Kitabul-musiqiy al-kabir» («Musiqa doir katta kitob»), «Kilamu fil-musiqiy» («Musiqaning uslublari haqida kitob»), «qitabul-musiqiy» («Musiqa kitobi»), «qitabun fi-ihsaʼil - ulum» («Fanlar klassifikatsiyasiga doir kitob»)ning musiqaga bagʻishlangan qismi, «Kitabun fi-ihsaʼil-iqaʼ» («Musiqa ritmlari - iqaʼ klassifikatsiyasi haqida kitob») va boshqalardir.

Al-Forobiy va gʻsha zamondagi boshqa olimlarning ilmiy-nazariy asarlari zamonasi talablariga kgʻra arab tilida yozilgan bgʻlib, Sharq musiqasi nazariyasining tub masalalarini sharhlab beradi. Al-Forobiyning musiqa nazariyasiga bagʻishlangan kitoblari Sharqda bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bgʻlib, gʻzidan sgʻnggi davrlarda yashab, ijod etgan musiqa olimlari kitoblarining yozi-lishida asos bgʻlib xizmat qildi. Al-Forobiy ygʻlini davom ettirganlardan biri - Abu Ali ibn Sino edi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) Buxoroga yaqin - Afshona qishlog'ida tug'ilgan. U buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi ham edi. Ibn Sinoning «Kitabush-shifa'» («Shifo kitobi»), «Donishnoma» («Bilim kitobi»), «Risalatun fi-ilmil musiqiy» («Musiqiy ilmi haqida risola») va boshqa kitoblarining musiqaga doir qismi al-Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sino musiqa haqida maxsus asarlar yozish bilangina chegaralanmadi, balki u musiqa nazariyasiga bag'ishlangan katta-katta asarlarini tibbiyot kitoblariga ham kiritdi. Bu tasodifiy hol emas edi,. albatta. Abu Ali ibn Sino g'zining tibbiyotga oid. g'lmas asarlarida, musiqaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergani holda, ruhiy kasalliklarni davolashda uni yuksak qadrladi. Xususan, Ibn Sinoning «qonunu fit-tibb» kitobida bir necha g'rinda musiqa asarlarini ruhiy kasalliklarga «shifo dasturi» sifatida tavsiya etiladi va uning shu kabi asarlarida musiqa nazariyasini sharhlab beradigan alohida bg'lim ajratiladi.

Uning «qitabush-shifa'», «qitabun-najat» («Najot kitobi») asarlari shular jumlasidandir. Manbalarda sharh etilgan musiqaning ayrim nazariy masalalarini taqqoslab kg'rish shuni isbotlaydiki, Abu Ali ibn Sino g'zining musiqa haqidagi asarlarida al-Forobiyning musiqaviy-estetik qarashlarini yanada rivojlantirdi va uni yuqori bosqichga kg'tardi.

IX-X asr musiqa madaniyati tarixida G'rta Osiyodan chiqqan buyuk olim Abu Abdullah Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiyning «Mafatixul-ulum» («Ilmlar kaliti»)

ensiklopediyasining musiqa nazariyasiga bag'ishlangan qismi ham alohida g'rin tutadi. Al-Xorazmiyning asari G'rta Osiyo xalqlari fan va madaniyatn tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir.

Sharq olimlari g'zlarining ensiklopediya tarzida yozilgan kitoblarida, dastlab musiqani falsafa fanlaridan biri deb hisoblaganlar, shu bilan birga, falsafa fanlarining biri sifatida g'z asarlariga kiritganlar. Bunda ular, shubhasiz, musiqaning badiiy-estetik kuchi va ijtimoiy-tarbiyaviy rolini hisobga olgan bg'lsalar kerak.

Sg'nggi davrlarda esa musiqa ilmi matematika fanlarining biri sifatida ensiklopediya tarzidagi kitoblarga kiritilgan edi.

Al-Qindiy (IX asr), al-Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy kabi mashhur olimlarning asarlari kg'p asrlar davomida Sharq xalqlari musiqa nazariyasini sharxlab berishda asosiy manba bg'lib xizmat etdi va sg'nggi davrlarda yaratilgan musiqa risolalarining mazmunini aniqlab berdi. Al-Forobiy zamonasidan boshlab, qariyb XV asrlargacha yozilgan musiqaga oid nazariy risolalarning mavzui, mundarijasi (ularning ichki mazmunidagi ba'zi tafovutlardan qat'iy nazar) bir-biriga juda kg'p masalalarda yaqin turadi.

Musiqa nazariyasiga bag'ishlab turli davrlarda yaratilgan bu risolalarda ayrim masalalar yuzasidan ba'zi ixtiloflar mavjud. XIII asrning ulkan olimi Safiuddin Abdulmg'min al-Urmaviy, al-Forobiyning nazariy mulohazalarini ba'zi masalalarda tg'g'ri kelmasligini isbotlashga harakat qilgan edi. Bunday ixtiloflar musiqa akustikasi, musiqa tovushi (savt yoki nag'ma), ritm (iqo') ta'rifida, ud asbobidagi ayrim pardalarning g'rnini aniklashda va boshqa masalalarda g'z ifodasini topgan. Bunday ixtiloflarda qariyb, uch

asrdan kg'proq davr musiqasining tarixiy. taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan g'zgarishlar g'z aksini topdi. Sharq musiqa risolalarida qg'yilgan masalalar xozirgi zamon boshlanqich musiqa nazariyasiga yaqin turadi..

Lekin g'rta asr musiqa risolalarida Sharq xalqlari g'tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog'liq bg'lgan masalalar ham borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bular umuman uchramaydi. G'rta asr musiqa olimlari nazariy masalalarda kg'proq al-Forobiy, ibn Sino asarlarida berilgan ta'rifni asos qilib olganlar. Musiqa nazariyasi sg'nggi davrlarda yashab, ijod etgan olimlar- Safiuddin Abdulmu'min, Mahmud bin Mas'ud ash-Sheroziy (XIII-XIV), Xg'ja Abdulqodir Marog'iy (XIV asr), («Jamiul-alxan», «Maqasidul-alqan» risolalari avtori), al-qusayniy, Abduraqmon Jomiy (XV asr) va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi. Bu olimlarning musiqa risolalarida maqom masalasi musiqa nazariyasining eng yirik va tub masalalaridan biri sifatida qaraladi. Chunki musiqa nazariyasini sharhlab berishdan maqsad uni jonli musiqa asarlari - maqomlar bilan bog'lashdan hamda musiqa amaliyotini umumlashtirib tushuntirib berishdan iborat edi.

Shunday ekan, maqomlar haqidagi mulohazalarni bayon etishdan oldin ularga bog'liq bg'lgan va qadimny ,musiqa risolalarida sharh etilgan ba'zi masalalar haqida qisqacha fikr yuritamiz. Bu masalalar maqomlarning nazariy va amaliy tomonlarini va umuman sharq xalqlari jonli musiqa asarlarining tashkil etadigan elementlarini ta'riflab beradi.

O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODINI O'RGANISH

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Musiqa merosidan, xalq kuy va qo'shiqlaridan ilhom olmagan zamonaviy muzikaning biron-bir sohasini topish qiyin. Ommaviy estrada qo'shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, an'anaviy o'zbek musiqasi asrlar davomida ikki asosiy yo'nalishda: folklor va professional yo'nalishda rivojlanib kelgan. Folklor musiqasi, mustaqil yo'nalish sifatida: "xalq musiqasi", "xalq — professional musiqasi", "mumtoz musiqa" va boshqa turli nomlar bilan atalib kelgan. So'nggi vaqtlarda esa ko'proq "og'zaki an'anadagi professional musiqa" deb yuritilmoqda.

O'g'zaki an'anadagi professional musiqa deganda, eng avvalo, ushbu kasb namoyandalari, mohir sozanda, xonanda va bastakorlarni ijodiy mahsuloti bo'lmish maqomlar hamda shunga o'xshash yirik shakldagi murakkab kuy va ashulalar ko'zda tutiladi.

Musiqa merosining har ikkala qatlami ham bir-biriga doimo bog'liq holda rivojlanib kelgan. Folklor, og'zaki professional musiqa uchun ilhom manbai, hayotbaxsh kuch bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, o'z navbatida maqom yo'llari asosida yuzlab xalq kuy va qo'shiqlari yaratilgan. Folklor va og'zaki an'anadagi professional musiqani bog'lovchi eng muhim omillardan biri — ularning og'zaki an'anaga mansubligidir.

Shu bilan bir qatorda, folklor va ogʻzaki anʼanadagi professional muzikaning farqli tomonlari ham mavjud. Bu kollektiv ijod. Mehnat va marosim qoʻshiqlarida va oʻlanlarda ijrochi, tinglovchi, kuy yaratuvchini birlikni tashkil qiladi. Musiqa namunalari esa oʻzining murakkab, barkamol va puxtaligi bilan ajralib turadi. Bu borada etakchi janr hisoblangan maqomlar – monodik (bir ovozlik) musiqa sharoitida, musiqa tafakkurining eng yuksak koʻrinishlaridan biridir. Maqomlarni yuqori saviyada ijro etish puxta bilim, tajriba va alohida mahorat talab qiladi. Bu asarlarni chuqur idroklash uchun ham maʼlum darajada tayyorgarlik lozimdir.

Musiqaviy folklor namunalarining koʻpchiligi, odatda, mehnat va turmush tarziga yoki biron-bir marosimga uzviy bogʻliq ravishda jorii qilinadi. Mehnat va marosim qoʻshiqlari faqat muayyan sharoitdagina yuzaga keladi va ular hayotning oʻzidan oliadi.

Zamonaviy musiqashunoslik fani ham bu borada chuqur izlanishlar olib bormoqda. Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqa-ning tub xususiyatlarini ochish, mohiyatini tushunish borasida olimlari oʻtgan asrning boshlaridan musiqa merosini muntazam va atroflicha oʻrganish XX-asrning 20- yillaridanoq boshlangan. U, asosan, uch yoʻnalishda oʻrganilgan.

1. muzika merosini amaliy oʻzlashtirish;
2. xalq musiqasi va maqomlarni toʻplash, notaga olish va nashr qildirish;
3. meros masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borish.

Bu davrdan boshlab an'anaviy musiqani amaliy o'rganish o'quv muassasalari keng joriy qilina boshlangan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg'ona vodiysida tashkil qilingan dastlabki musiqa maktablariga mashhur ustozlar taklif qilingan. Ular og'zaki professional musiqaning kuy va ashula yo'llari hamda maqomlarni yosh ijrochilarga o'rgata boshlaganlar.

1928 yilda tashkil qilingan Samarqand muzika va xoreografiya ilmiytekshirish instituti o'z davrida musiqa merosini o'rganish bo'yicha eng katta dargoh bo'lgan. Bu erda rus musiqasining vakillari bilan bir qatorda institutda O'zbekistonning turli joylaridan kelgan mashhur ustozlar ta'lim bergan. Samarqand ijrochilik maktabining yirik vakili Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Xorazm maqomlarining ajoyib ustози Matyusuf Xarratov, Farg'ona—Toshkent yo'llarining taniqli ijrochilari Abduqodir Ismoilov va boshqalar saboq berganlar.

Xalq kuylari va maqomlarni notaga olish masalasiga kelsak, ma'lumki, Sharq musiqasining rivojlanish jarayonida turli xil yozuvlar qo'llanilgan. Bu o'rinda Safiuddin Urmaviy qo'llagan nota yozuvi birinchi navbatda musiqa yo'llarini biladigan ijrochilar uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qilgan. Safiuddin Urmaviyning ud sozi, Komil Xorazmiyning tanbur uchun yaratgan tabulaturalarining asosiy vazifasi ijrochiga tanish bo'lgan kuy va ashulalarni xotiraga keltirishdir. Boshqacha qilib aytganda, bular og'zaki an'anadagi (og'zaki rivojlanadigan va tarqaladigan) musiqa sharoitidagi yozuvlar bo'lib xizmat qilgan.

Maqomlarni zamonaviy nota sistemasi asosida yozishga birinchi bo'lib taniqli etnograf va kompozitor V. A. Uspenskiy

kirishgan. U 1922 yilda Buxoroga borib, atoqli maqomchi ustozlar-Ota Jaloliddin Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniy va ularning shogirdlari Domla Halim Ibodov hamda Ma'rufjon Toshpo'latovlardan notaga yozib olingan Shashmaqom Buxoro Xalq respublikasi tomonidan 1924 yilda nashr qildirilgan. V. A. Uspenskiy Shashmaqomining cholg'u va ashula bo'limlarini ham tanbur talqinida yozib olgan. Demak, ashula bo'limlari she'r tekstlarisiz berilgan.

1934 yilda musiqashunoslar E. E. Romanovskaya va I. A. Akbarov tomonidan Xorazmga ekspeditsiya uyushtirilib, mashhur maqomchi ustoz Matyoqub Xarrotidan Xorazm maqomlari fonografga yozilgan va notaga tushirilgan. Keyinchalik maqomlar "Xorazm klassik muzikasi» nomi bilan E. E. Romanovskaya tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan.

Tojikistonning taniqli ijrochilari Boboqul Fayzullaev, Fazliddin Shahobov va Shonazar Sohibovlar Shashmaqomning to'la tekstini yozib, besh jildlik kitob shaklida atoqli olim V. M. Belyaev tahriri ostida Moskvada nashr qildilar.

O'zbekistonda maqomlar va, umuman, og'zaki professional musiqa merosini to'plashda akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari benihoya kattadir. An'anaviy musiqaning ulkan bilimdoni, ustoz Yu. Rajabiy uzoq yillar davomida izlanishlar olib bordi va maqomlarning mukammal matnini tayyorlash maqsadida uni uch marta qayta ishladi.

Dastlab maqomlar va xalq qo'shiqlari tarqoq holda "O'zbek xalq muzikasi" turkumining I—IX kitoblariga kiritilgan. Keyinchalik maqomlar yaxlit to'plam tarzida "O'zbek xalq muzikasi»ning V

kitobini tashkil qildi. Xalq kuy va qo'shiqlar va doston yo'llari aloxida kitob qilib chop qilindi. 1958 yilda O'zbekiston Radio va televidenie komiteti qoshida Yu. Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambli tashkil qiliib, unga respublikaning turli joylaridan maqomdon ijrochilar taklif etildi. Ansamblning ish faoliyati jarayonida oldingi qilingan maqom yozuvlarini yana ham takomillashtirish va yanada mukammalroq yozuvni yaratish maqsadida uchinchi nashri tayyorlandi. Bunda Snashmaqom to'laligicha olti jildlik kitob bo'lib chop etildi.

Xorazm maqomlari Matniyoz Yusupov tomonidan notaga olindi. Hozirgi kunda Xorazm maqomlarining M. Yusupov tomonidan tayyorlangan to'laroq variantining ikki jildi nashrdan chiqdi.

O'tgan asrning boshlarida yozilgan dastlabki ilmiy izlanishlar musiqaning ko'proq amaliy masalalariga qaratilgan. Maqomlar haqidagi dastlabki kitoblar Bekjon Rahmon va Matyusuf Xarrotlar yozgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" va A. Fitratning "O'zbek klassik musiqasi" kitoblari aynan shu yo'nalishda bo'lgan. Bu asarlarda ko'proq amaliy masalalar, maqom ijrochiligi, ularning tarkibi va tuzilishiga oid fikrlar bayon qilinadi.

Maqomlar haqida N. N. Mironovning "O'zbek va boshqa sharq xalqlarining muzika madaniyati" kitobida ham ma'lumotlar berilgan. Bu asarda maqomlar to'g'risida umumiy tushunchalar berilishiga qaramasdan, bu san'atning asl mohiyatini tushunishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, maqomlar "arab – fors dostonchiligi" mahsuloti deb tushunilgan.

E. E. Romanovskayaning “Xorazm klassik muzikasi” kitobiga yozilgan kirish soʻzida ekspeditsiya paytida olingan taassurotlar va maqomchilik toʻgʻrisidagi Xorazm ijrochilari orasida yurgan fikrlari ham bayon etilgan.

Buxoro va Xorazm maqomlari toʻplamining kirish maqolalarida Yu. Kon va I. Akbarov tomonidan yozilgan maqomlarning cholgʻu va ashula yoʻllarini lad, ritm va shakl masalalari yoritilgan.

Maqomshunoslikni yangi pogʻonaga koʻtargan ilmiy asarlardan biri Ishoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobidir. Maqomchilik masalalari dastlab shu kitobda keng va atroflicha yoritilgan. Tarixiy manbalar, oʻtmish musiqa risolalari, zamonaviy maʼlumotlar asosida hamda musiqa amaliyotiga tayangan holda maqomlarning tarixiy va nazariy masalalari mukammal bayon etilgan. Bu monografiyada maqomlarning rivojlanish jarayoni va ichki tuzilish masalalari keng yoritilib, sheʼriy asosi va ijrochilik muammolari yangicha talqin qilingan. Ilgari jiddiy oʻrganilmagan namudlar masalasi ochib berilgan. Maqomlarning tuzilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi namudlar sistemasi I. I. Rajabov tomonidan ishlab chiqilgan.

XX asr ijodiyotida, mintaqamiz sanʼatining boy tarixida uchramagan keskin burilishlar sodir boʻldi. Uning shiddatli toʻlqinida qadimiy madaniyatimizning butun bir qatlamlariga talofotlar keltirgan oqimlar, yuksalishga yuz tutgan jarayonlar toʻqnashuvida, kutilmagan yoʻnalishlarda milliy musiqaning Gʻarb uslublari bilan qorishgan yangi navlari, shakl va ifoda vositalari yuzaga keldi. Asr

oxiriga kelib, o'zbek musiqasining butun borlig'i o'zgarib, jahon talablari darajasidagi mustaqil badiiy qiyofasi shakllandi

So'nggi o'n yilliklarda o'zbek musiqasi yangi, o'ziga xos yo'lga chiqib oldi. Bu jarayonning ko'p jihatlari mustaqillik mafkura. Mazkur o'n yilliklarda maqomshunoslikning jonlanishi to'loqida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda mavzuga oid respublika va xalqaro doiradagi ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Ularning eng nufuzlilari 1974 yil Toshkentda o'tgan "Maqom, mug'om va zamonaviy kompozitorlik ijodi" konferentsiyasi hamda "Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining og'zaki an'adagi professional musiqasi va zamonaviylik" mavzuida 1978, 1983, 1987 yillardagi Samarqand xalqaro simpoziumlarini alohida qayd qilish lozim. 1990 yildan e'tiboran YUNESKO qoshidagi Xalqaro An'anaviy Musiqa Kengashi tarkibida maxsus "Maqom guruhi". O'tgan davr ichida mazkur guruhning Germaniya (1990, 1992 yy.), Finlandiya (1996 y.), Turkiya (1998 y.), O'zbekiston (2001 y.) mamlakatlarida ilmiy konferentsiyalari bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha jabhada bo'lgani kabi san'at borasida ham noyob durdonalarni tiklashga, milliy musiqa madaniyatini jaxon uzra ko'z-ko'z etishga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. «Sharq mamlakatlari xalqlari milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'alarini avaylab – asrash xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarish yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy – ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, «Sharh taronalari» xalqaro musiqa festivali har ikki yilda bir marta

o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Festival ilk marotaba 1997 yilning 25 avgust kuni Samarqanddagi Registon yodgorliklar majmuasida o'z faoliyatini boshladi. Bunda dunyoning turli burchaklaridan kelgan atoqli san'atkorlar, yirik musiqashunoslar, taniqli olimlar va jamoat arboblari, musiqa shinavandalari, san'at bayramining guvohi bo'ldilar.

Mustaqillik davrida ta'lim shakli shamoyili qayta ko'rib chiqilishidan tashqari nafaqat uning ayrim tuzilmalarini qayta muvofiqlashtirishda, balki mazmunini yangilash shuninshek to'plangan tajribani inobatga olgan taqdirda ravnak toptirishda talaygina yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy va madaniy yutuqlarini butun jahonga namoyish etmoqda.

Birgina musiqa sohasida, mamlakatimizda bu borada "Sharq taronalari", "Zamonaviy musiqa", "Simfonik musiqa", "Milliy cholg'ular" kabi nufuzli xalqaro festivallarning o'tkazilishi, qator teatr va musiqa koshonalarining yuzaga kelishi ma'naviy islohotlar yo'lidagi ulkan odimlar ekanligini isbotlashga ortiqcha hojat yo'q.

Toshkentning markazida konservatoriya yangi binosining qad ko'tarishi va unga O'zbekiston davlat konservatoriyasi nomining berilishi esa O'rta Osiyo xalqlarining musiqa tarixidagi jahonshumul voqea deyish mumkin. Bu mo'tabar dargohning ijodiy va ilmiy jarayoniga asos bo'ladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida asrlar osha bizgacha etib kelayotgan klassik musiqamiz — maqomlar xalqimizning musiqiy merosi beqiyos o'rin tutadi.

2.3.«Shashmaqom – mumtoz musiqaning asosi», «Shashmaqomning musiqa madaniyatimizdagi o’rni va ahamiyati»

1. Maqom nima? Salobatli maqom namunalarida qanday g’oya yoki ta’limotlar ifoda etilgan? Nima sababdan maqom san’ati ko’p asrlardan buyon o’z mohiyati, demakki badiiy qiymatini yo’qotmasdan kelmoqda?

Bu kabi savollar serqirra va bir – biriga tutash madaniy, tarixiy, nazariy masalalar bilan uzviy bog’lanib ketgani, natijasida ularga bir yo’la va bir yoqlama javob berish mushkuldir.

Maqomlar tarixini o’zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birincha davr mazmunini maqomlarning makon – zamon nuqtai nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy, ohang qatlamlarini o’rganish tashkil etadi.

Jahon kuy – ohanglarini qadimiy qatlamlarini o’rganishga ko’mak bo’luvchi mahsus risolalar bo’lmasa – da, lekin bu borada eng asosiy va muhim manbalar bizning davrgacha yetib kelgan. Ular «Shashmaqom», «Xorazm maqomlari», «Farg’ona-Toshkent» maqom yo’llaridir.

Maqom kuylarining xususiy «til» tuzilish (sintaksis) qurilmalarini idrok va tahlil eta olish asosida ular tarkibida uyg’unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini anglab olish imkoniyati mavjuddir. 7 ta asosiy pardalari uyg’un, ohangdosh

tovushlar nisbatiga qurilgan bu nag'omat uyushmalari kim tomonidan va qachon ijod etilgan.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko'ra maqomlarning eng qadimiy namunalari payg'ambarlardan meros qolgan. Xususan, 16 – asrning 2 – yarmi 17 – asrning 1 – choragida yashab ijod qilgan mashhur musiqashunos va olim Darvesh Ali Changiyning «Tuhfatus – surur» nomli risolasida avvalgi yetti payg'ambar nomlari bilan bog'liq 7 ta maqom bo'lganligi aytiladi. Bunda «Rost» maqomi – Odam alayhissalomdan, Ushshoq – Nuh alayhissalomdan, Navo – Dovud alayhissalomdan, Hijoz – Ayub alayhissalomdan, Husayniy – Yoqub alayhissalaomdan va Rahoviy – Muhammad salallohu alayhi vassallamdan qolganligi haqidagi rivoyatlar bayon etiladi.

Bu o'rinda muallif Xo'ja Abdulqodir Marog'iy, Safiuddin ibn Abdulmo'min Urmaviy, Sulton Uvays kabi mashhur ustozlar fikriga tayanganligini ham ma'lum qiladi.

Shuni aytish kerakki, «maqom » atamasidan oldin «yo'l» ma'nosini anglatuvchi «choh», «tariqa», «ravish» kabi bir qancha atamalar qo'llanib kelinganligini ham yuqoridagi fikrga yaqinligi bor. Olloh Payg'ambaolarga insonlarga to'g'ri yo'l, baxt – saodatga eltuvchi yo'llarni ko'rsatganlar.

Bu ta'limotlar insonlarga go'zal ruhiy meros sifatida o'tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma'qul va manzur bo'lgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida yetilib, so'ngra shu parda «yo'llari»ni yangi namunalari ijod etilgan bo'lsa kerak.

2. Maqom san'ati tarixini o'rganishda, O'rta asrlar (13-17) Sharq olamida mashhur bo'lgan o'n ikki maqom tizimi muhim o'rin tutgan. Bizgacha bo'lgan davrda uzil – kesil qaror topishi va uning ilk mumtoz ko'rinishi Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri keladi.

Amir Temur sa'yi – harakati bilan Samarqandda turli fan va madaniyat, san'at ahllari qatori musiqa ilmining yirik vakillari to'plangan. Muprorix ibn Arabshohning «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» kitobida ta'kidlanishicha, Samarqandga jalb etilganlar orasida mashhur musiqashunos olim Abdulqodir Marog'iy, uning o'g'li Safiuddin, kuyovi Nasreyn, Qutbal – Mavsilin, Ardasher al – Changiy kabilar bo'lgan. Ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Bu davrda tovush – pardalarning musiqa amaliyoti uchun zarur va mukammal uyushmalari aniqlanib, shulardan «maqom» nomini olgan 12 tasi oliy shakl (nav) sifatida qabul qilingan. Ular quyidagicha xususiy nomga ega: Ushshoq, Navo, Bo'salik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rohaviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Kuchak (Zirfkand), Buzruk. Shuni aytish kerakki, o'n ikki maqom tartibida musulmonlarning ulug' haj safariga tegishli iboralar mavjud bo'lgan. Ayniqsa, «Hijoz» va «Iroq» nomlari serma'no xususiyatga ega.

«Hijoz» – muqaddas Makkayi – Mukarrama va Madinayi – Munavvara shaharlari joylashgan sarhadni anglatga, «Iroq» mamlakat nomiga nisbat beriladi. O'tmimshda muqaddas Hijoz manziliga yetishmoq yo'lida Iroq cho'llaridan o'tilgan. Shularni

nazarda tutgan holda, «Hijoz» va «Iroq» nomlari ulug' haj safariga tashbeh etilgan.

*Gar Sifahonda Navo topmasang, ey yori Buzurg,
Qilg'aysan, azmi Iroq, aylab ohangi Hijoz.*

(Hofiz

Xorazmiy)

*Ey Navoiy, sen dog'i qilsang tama sayri Hijoz,
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kebi.*

(Alesher Navoiy)

*Lutfiy, Hiriya qolmadi she'ringga mushtariy,
Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq emish Lutfiy.*

(Lutfiy)

1. Shashmaqom – bu olti maqom degani bo'lib, u quyidagi maqomlardan tashkil topadi:

1. **Buzruk** – ma'nosi «katta», «ulug'», «buyuk»,
2. **Rost** – ma'nosi «to'g'ri», «chin», «haqiqiy»,
3. **Navo** – ma'nosi «kuy», «mungli kuy»,
4. **Dugoh** – ma'nosi «ikki o'rin», «ikki parda»,
5. **Segoh** – ma'nosi «uch o'rin», «uch joy», «uch parda»,
6. **Iroq** – ma'nosi shu nomli mamlakatga nisbat berilgan.

Shashmaqom 17 asrda Buxoroda shu davr musiqa cholg'uchilari tomonidan 6 maqom shakliga takomillashtirildi. Bunda 6 xil

mukammal parda – tuzuklar uyushmasi bosh omil sifatida olinib, ularning muayyan doira usullari bilan birligi asosida ijod etilgan cholg’u kuy – aytim yo’llari alohida-alohida turkumlarga birlashtirilgan. Demak, Shashmaqom, eng avvalo, oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatar ekan. Maqom cholg’u kuylari va aytim yo’llari turkumlari esa, ana shu mukammal pardalarning ma’lum doira usllari bilan mushtarkligi natijasida yuzaga keladi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo’limdan cholg’u – va ayti yo’llari (turkumlari) dan iborat.bo’lib, ularni «Ustoz – shogird» an’anaviy maktabida tahsil ko’rgan malakali cholg’uchi va ashulachi –hofizlar ijro etganlar.

Maqomlarni notaga yozib olish asosan 20- asrning 20- yillarida amalga oshirildi. Buxoro, Samarqand, Toshkent shaharlarida maxsus musiqa maktablari va bilim yurtlari tashkil qilinib, ularda o’quvchilarga maqom va xalq, musiqa asarlaridan ham ma’lumot berildi; **Ota Jalol Nosirov, Ota G’iyos Abdug’aniyev, Domla Halim Ibodov, Shoqosim Shoumarov, Abduvoxob Soatov, Ustod Shodi Azizov** kabi maqomdonlar bu maktablarda dars berdi.

Shashmaqomni dastlab **V.A. Uspenskiy Ota Jalol va Ota G’iyoslardan** hozirgi nota yozuvida 1924 – yilda nashr ettirdi. (**"Shashmaqom "**, **Buxoro).** **M.Xarratov va B. Raxmonovning** "Xorazm musiqiy tarixchasi (M., 1925), A. Fitratning "O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (Samarqand - T 1927) kitoblari uchun ilmiy – nazariy xarakterda bo’lmasa-da, maqomshunoslikning ilk namunalari edi. Shashmaqomni o’rganishga, ayniqsa, 1950 – yillardan boshlab katta ahamiyat berila boshladi.

O'zbekistonda Shashmaqomni **Yunus Rajabiy** o'zi va turli maqomchilar ijrosida yozib olib, ikki marta - "O'zbek xalq musiqasi" (V t., 1959) va "Shashmaqom" (1-U1 tomlar, T., 1961-77) nomi bilan nashr ettirdi.

Shashmaqom cholg'u (mushkilot) yo'llari

Shashmaqomning mushkilot bo'limi asosiy besh qismdan iborat bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. **Tasnif** – tasnif etilgan, ijod etilgan, Maqom cholg'u bo'limlari tasnif nomli kuylar bilan boshlanadi. Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugoh, Tasnifi Segoh, Tasnifi Iroq. Tasniflar asosan 2/4 o'lchovli ritmda bo'lgan doira usuli qo'llaniladi. Tasnif cholg'u kuylarining shakl topishida «xona» va «bozgo'y» nomli kuy tuzilmalari muhim o'rin tutadi. «Xona» - forsha so'zdan olingan bo'lib, uy, o'zgaruvchan kuy tuzilmasi bo'lib, u asar ijrosi davomida bir necha bor takrorlanadi va o'zgaradi. «Bozgo'y» - esa, xonadan farqli doimiy barqarorlik kasb etadi.

2. **Tarje'** – qaytariq, takrorlash, takrorlanuvchi. Arabcha so'z – takrorlash ma'nosini anglatadi. Buning ma'nosi Tarje' qismlarida maxkur bo'limning birinchi qismi, ya'ni, Tasnif usuli takrorlanadi. Tarje' ham maqom nomlariga qo'shib o'qiladi: Tarje'i Buzruk, Tarje'i Navo, Tarje'i Dugoh, Tarje'i Segoh, Tarje'i Iroq. Ammo Rost maqomida Tarje' kuy qismida uchramaydi.

3. **Gardun** – gardun, falak degan ma'noni anglatadi. Gardun cholg'u kuylari Mushkilot bo'limining 3 – tarkibiy qismi bo'lib, odatda «Tasnif», «Tarje'» lardan so'ng ijro etiladi. Garduni Buzruk,

Garduni Rost, Garduni Navo, Garduni Dugoh, Garduni Segoh deb ataladi. Iroq maqomida Gardun kuyi uchramaydi.

4. **Muxammas** – Olti maqomning «**Muxammas**» nomli cholgʻu kuylari «Gardun»lardan keyin ijro etiladi. U bir necha variantlarda namoyon boʻladi. Olti maqomda 16 ta Muxammaslar mavjud. Muxammas atamasining lugʻaviy negizi «Beshlik» maʼnosini bildiradi. U maqomlar tizimida 5 ta tarkibiy qismdan iborat murakkab doira usulini anglatadi.

1). Buzruk maqomidan: Muxammasi Buzruk, Muxammasi Nasrullovi;

2). Rost maqomidan: Muxammasi Rost, Mux Ushshoq, Muxammasi Panjgoh;

3). Navo maqomidan: Muxammasi Navo, Muxammasi Bayot, Mux.Husayniy

4). Dugoh maqomidan Muxammasi Dugoh, Muxammasi Chorgoh, Muxammasi

Hoji Xoʻja, Muxammasi Chor Sarxona.

5). Segoh maqomidan: Muxam Segoh, Muxam Ajam, Mux.Mirza Hakim.

6). Iroq maqomidan: Muxammasi Iroq.

5. **Saqil** – Olti maqomning «Mushkilot» boʻlimlari «Saqil» nomli cholgʻu kuylari bilan yakunlanadi. Ushbu atama arabcha soʻz boʻlib, «ogʻir», «vazmin» maʼnolarini anglatadi. Eng murakkab doira usullaridan hisoblanadi. Saqillar ham har bir maqomda bir necha bor koʻrinishlarda (variantlar) da zuhur boʻladi:

1. **Buzruk** – maqomida Saqili Islim, Saqili Sulton,

2. **Rost** – maqomida Saqili Vazmin, Saqili Rak – rak,

3. **Navo** – maqomida Saqili Navo,
4. **Dugoh** – maqomida Saqili Ashqullo,
5. **Segoh** – maqomida: Saqili Basta Nigor,
6. **Iroq** – maqomida: Saqili Iroq-1, Saqili Iroq-2, Saqili Kalon

Shashmaqomning aytim (Nasr) yo'llari

Shashmaqom an'anaga ko'ra dastavval cholg'u bo'limi ijro etilib, so'ngra aytim (ashula) bo'limiga o'tiladi. Ashula bo'limi umumiy nom bilan Nasr deb ataladi. Nasr – arabcha so'z bo'lib, «ko'mak» , «zafar» demakdir. Maqom ashulalari murakkab va mukammal namunalarni tashkil etadi. Shu bois ham ularni kuylash uchun maxsus amaliy malakalar va mahorat talab etiladi. Bunga erishish uchun musiqiy tahsilning «Ustoz - shogird» an'anasi qo'llanib kelingan. Shogird ustozining yonida 7 – 10, hatto 15 yillab uning mahoratini egallash uchun yurgan, doira usullarini hamda tanbur va dutor ijrochiligini zarurli darajada o'zlashtirganlar. Bunda xotira kuchi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuni nazarda tutib, maqom ashulachilarini «Hofiz» arabcha (saqlovchi), ya'ni, xotirada saqlovchi deb atashgan. Maqom hofizlari kuchli, yuqori pardalarni zabt eta oladigan, xushovoz sohiblari bo'lishligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Shashmaqomning Nasr, aytim yo'llari ikki guruhdan iborat ashula turkumlarga bo'linadi. 1 – guruhning tarkibi, odatda «Sarahbor», «Talqin», «Nasr» deb nomlanuvchi asosiy aytim yo'llari hamda ularning taronalari va yakuniy «Ufar» qismlaridan

tashkil topadi. Sarahbor – fors-tojikcha – «sar» -bosh, axbor – xabar, ya’ni bosh mavzu, bosh xabar ma’nolarida keladi. Zotan har bir maqomni aytim yo’li Saraxbor bilan boshlanadi. Saraxbor qaysi maqomga mansub bo’lsa, shu maqomning nomi qo’shilib aytiladi. Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh, Saraxbori Iroq.

Saraxborlar yuksak ishq (Tasavvufona ishq), diniy-falsafiy, pand – nasihat kabi mavzulardagi mumtoz she’riyat namoyondalari (Ro’dakiy, Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Muyeis, Nodira, Furqat va hokazo) namunalari asosida aytiladi.

Saraxbor (ashula) yo’li ichki shakl tuzilishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1.Dastlab kirish qismi bo’lgan **muqaddimada** cholg’u kuyi yangraydi.

2. Hofiz ashula aytishga kirishgan vaqt – **daromad** qismi boshlanadi. Odatda daromad bir xat, ya’ni bir bayt (to’rt misra) alohida o’qiladi.

3.**Miyonxat** – ashula kuyining o’rta pardalarida (dastlabki tayanch pardadan kvarta yoki kvinta yuqorilab) davom ettirilishi.

4.**Dunasr** – dastlabki daromad kuyini odatda oktava yuqorilab kuylanishi deyiladi..

5.**Avj** – ashulani eng yuqori pardalarda kuylanadigan muhim cho’qqi qismi. Bunda o’zga kuy yoki ashula bo’laklari qo’llaniladi. Odatda bunday «yangi» kuy tuzilmalari maqom ashula yo’llariga oid boshqa qismlardan olinib, ijro etilayotgan «Saraxbor» doira usuliga muvofiqlashtirilgan holda aytiladi. Bu hol maqomchilikda («**Namud**» – fors-tojikcha – ko’rinish, namoyon bo’lish) deb

yuritiladi. Namud sifatida qo'llanilgan kuy tuzilish o'zining kelib chiqish manbasiga ko'ra nom oladi. Masalan: Segoh maqomi kuy tuzilmasi qo'llangan bo'lsa, «Namudi Segoh» (Segoh Namudi), Navo maqomini Bayot qismidan kuy tuzilmasi qo'llangan bo'lsa, «Bayot Namudi» kabi nomlar bilan ataladi.

6.Furovard – Tushirim , ya'ni avjdan so'ng ashula kuyini dastlabki pardalarga qaytib yakunlanish qismi.

7.Saraxbor misolida ko'rilgan shakliy – tuzilma Talqin va Nasr nomli aytim yo'llari uchun ham xosdir. Ammo, Talqin va Nasr aytim yo'llari Saraxborga nisbatan doira usullari jihatidan farq qiladi.

Binobarin, Saraxbor, Talqin va Nasr aytim yo'llari, turlicha doira usullarida ijro etilarkan, ularni birinchisidan ikkinchisiga o'tish – bog'lanishda «taronalar» ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Masalan: Saraxbor ashula yo'llari ijro etilgach, unga ulanib oltitacha «Taronalari»kuylanadi va so'ngida «Suporish» nomi bilan ma'lum yo'l tuzilmasi namoyon bo'ladi va uning vositasida keyingi ashula qismi «Talqinga» o'tiladi.

Bunda «Suporish» orqali «Talqin»ni kuylashga zamin hozirlanadi, ya'ni Suporish davomida Talqinning doira usuli o'z aksini topadi. «Talqin»dan «Nasr»ga o'tishda ham shu vosita qo'llaniladi. Mazkur aytimlar turkumini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Nasr bo'limi: Birinchi guruh aytimlar:

1. Saraxbor – bosh xabar, Tarona I – IV, I – VI ;

2. Talqin – Tarona (Forscha qo'shiq, ashula);
3. Nasr – Tarona ;
4. Ufar.

«Saft» va «Mo'g'ulcha» aytim yo'llari:

Shashmaqomning 2 – guruh aytim yo'llari turkumlanishida o'zgacha qonuniyatlar namoyon bo'ladi. Bunda Mo'g'ulcha va Savt nomli aytim yo'llari yetakchi o'rin tutadi. «Savt» - (arabcha – ohang, tovush, aks-sado). Odatda 1 – turkumdagi Talqin va Nasr yo'llariga nazira (javob, aks – sado) sifatida yaratilgandir. Savt ashula yo'llari Segoh va Iroq maqomlaridan tashqari Buzruk, Rost, Navo, Dugoh maqomlarida quyidagi nomlarda keladi.

1. Buzrukda – Savti Sarvinoz,
2. Rostda – Savti Ushshoq, Savti Sabo, Savti Kalon.
3. Navo maqomida – Savti Navo,
4. Dugoh maqomida – Savti Chorgoh.

Savtlar 5/4 murakkab doira usuliga asoslanadi.

2 – guruh aytim yo'llaridan «Mo'g'ulcha» ashula yo'llari olti maqomning 4 tasida (Rost va Iroqdan tashqari) mavjud bo'lib, quyidagicha nomlanadi.

1. Buzruk maqomida – Mo'g'ulchai Buzruk,
2. Navo maqomida – Mo'g'ulchai Navo,
3. Dugoh maqomida – Mo'g'ulchai Dugoh,
4. Segoh maqomida – Mo'g'ulchai Segoh.

Mo'g'ulchalarning usuli ham 5/4 ulchovida bo'lib, Savtlarga nisbatan bir oz tezroq ijro etiladi. Mo'g'ulcha va Savtlarning

shoxobchalari bir xil nomga ega. «Talqincha», «Qashqarcha», «Soqiynoma» va «Ufar» nomli qismlar tashkil etadi.

XULOSA

Respublikamiz istiqloлга erishgan kundan boshlab tarixiy qadriyatlarimizni madaniy merosimizni tiklash, milliy urf-odatlar va an'analarni rivojlantirish, yaqin o'tmishdagi ruhiy kushandalik mafkurasiga zid holda Islom dinining yuksak ma'naviyat va madaniyat vositasi ekanligini, u odamlarni insofga, diyonatga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka da'vat etuvchi g'oyat kuchli qurol ekanligi Prezidentimiz I.A.karimov tomonidan ochiq-oydin aytilди va to'g'ri baholab berildi.

Milliy Istiqlol - bu eng avvalo kishilarning o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatda ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalar ham ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Prezidentimiz I.Karimov mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq odamlar ongi va tafakkurida o'zgarish yasash asosida O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ishlab chiqdi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- vatanparvarlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insoniyatning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

Xalqimiz hayotiga bevosita singib ketgan qadimiy an'analarimizning bir bo'lagi o'zbek musiqa folklori va og'zaki ijodi an'analaridagi professional musiqa hisoblanadi.

Mazkur muammoning tahliliga to'xtalish uchun eng avvalo an'analarning mazmuniga to'xtalib o'tishni o'rinli deb topdik.

An'analar bu - xalqlarning ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib qoladigan, jamoatchilik fikri bilan qo'llab quvvatlanib, mustahkamlanadigan, ijtimoiy axloq va o'zaro munosabatlarning umumlashgan normasi va tamoyillari hisoblanadi. An'analar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy, siyosiy, mahalliy an'analar turlariga bo'linadi. Har bir davr siyosiy mafkuradan kelib chiqqan holda ayrim an'analar vaqtinchalik o'z qadr-qiymatini yo'qotadi va boshqa an'analar xalq orasida keng tarqaladi.

An'analarning rivoji jamiyatning moddiy darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lsada, ular ijtimoiy hayotga va madaniyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. An'analar odatda inson qadr-qiymatini ulug'lovchi ijobiy va insonni tubanlikka chorlovchi, salbiy an'analarga bo'linadi. Missiojerlik, majusiylik, eksterimistik kabi odatlar bo'lib, bunday zararli odatlarning an'ana tarzida shakllanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir siyosiy tuzim va mafkurasidan kelib chiqqan holda ayrim an'analarni bekor qilish bilan ayrim an'analarning keng rivojlanishiga imkoniyat yaratib beradi. Xususan, sobiq ittifoq davrida kommunistik g'oya keng tantana qilgan davrda dinsizlikka asoslangan g'oya ilgari surilgan. Ayni paytda shuni alohida ta'kidlash lozimki, u davrda bizning maqomlarimizning kuylanishiga diniy tus berib uni taqiqlashga

harakat qilishgan. Ayni paytda barcha din o'choqlarini eng xarob joylarga aylantirib, machitlarni, din arboblarning maqbaralarini dori saqlanadigan omborxonalarga, molxona va otxonalarga aylantirganlar.

Buyuk qomusiy asarlar yaratgan At-Termiziy, Al-Buxoriy, A.G'ijduvoniy va boshqa allomalarning nomlarini tarixdan isyonchilar tarzida o'chirib tashlashga uringanlar. Musiqa o'quv yurtlarida asosan rus va yevropa uslubidagi kuy va qo'shiqlarga katta o'rin berilgan. O'zbek cholg'u sozlarining o'rnini Yevropa cholg'ulari bayan, akkordeon, violonchil, skripka va boshqa cholg'ular egalladi. O'zbek cholg'ularini o'rganishga mutlaqo yo'l yopildi. O'zbekona kuylash uslublari zararli va Yevropa uslubida kuylashni buzib qo'yuvchi uslub sifatida qoralanar edi. Shuningdek, ayni paytda xrestian diniga mansub bo'lgan ariatoriyalar, pyesalar va rekvizmlarni keng targ'ib qilinishi hayron qolarlik darajadagi holat edi. Italiya va ayniqsa, rus ashulachilik mahoratlariga an'anamiz keng targ'ib qilinardi. Shu tariqa o'zbek musiqasiga xos nazir durdona asarlar va kuylash uslublarni o'rganishdan yosh avlod bebahra bo'lib qolaverardi. Ularning aksariyat ko'pchilikka "diniy qo'shiqlar" tamg'asi bosilib, ularni iste'moldan chiqarib tashlash udum bo'lgan edi. Ularning o'rniga partiya, komsomol, pioner kabi tashkilotlarni ulug'lovchi qo'shiqlar kuylash odat tusiga kirib qolgan edi. Rus xalqining buyukligi qolgan millatlar esa unga ergashib yuradigan kichik ukalarga aylangan, Moksvaga sajda qilish oshkora qabul qilingan edi.

Sobiq ittifoq davrida o'zbeklar erta sahardan o'z madhiyalari bilan sajda qilishni boshlar edilar. Xususan, unda quyidagi so'zlar bor edi:

“Assalom rus xalqi buyuk og'amiz” va hokazo. Yana boshqa “Moskva, Moskva va go'zal Moskva” va yana boshqasida

“Bepoyon yurtimning bir gulbog'i

Moskvadan nur olgan baxt mayyog'i”.

Bunday sajdanoma xarakterdagi qo'shiqlarni yuzlab emas, balki minglab topsa bo'lar edi. O'zbek xalqi mustaqil davlat deb tan olinganidan keyin kuylanadigan qo'shiqlarning mazmuni ham tubdan o'zgardi. Musiqiy an'alarimizning sarchashmasi bo'lgan maqomlar, yangi qo'shiqlar, diniy ruhdagi qo'shiqlarni kuylashga ham keng yo'l ochib berildi. O'zbek xalq cholg'u sozlarini o'rganishga sharoit yaratib berildi. Musiqa maktabidan tortib, umumiy o'rta ta'lim maktablariga, to'garaklaru akadem-litsey, kollejlargacha, hatto musiqa san'atining asl koshonasiga aylangan O'zbekiston davlat Konservatoriyasida, musiqa pedagogika oliygohlarida ham o'zbek cholg'u asboblarida chalishni o'rganish va o'zbek xalq kuylash usublarini o'ziga mujassamlashtirgan xalq an'anaviy qo'shiqchilik uslubida kuylashga ham keng yo'l ochildi.

O'zbek xalqi mustaqillikka erishgan kundan boshlab xalq an'alariga yangi-yangi an'alar ham kirib kela boshladi. Xususan, ilgari qat'iyman etilgan “Navruz”, “Mehrjon” bayramlari, hayit marosimlarini o'tkazish ham an'anaga aylandi. Mustaqillik kuni, Bilimlar kuni, O'qituvchi va murabbiylar kunini

nishonlash, Konstitutsiya kuni, Yangi yil bayrami, Qurolli Kuchlarimizning tashkil qilingan kuni, Xotiralash bayrami, Xotin-qizlar bayrami kabi yangi-yangi an'analar xalqimizning ijtimoiy hayotiga singib ketdi. Shuningdek, qo'shiq bayramlari, "O'zbekiston - Vatanim manim" ko'rik-tanlovlarini o'tkazish ham an'analarga aylandi. Bu yangi an'analarni muborakbod etuvchi yuzlab yangi-yangi mazmundagi qo'shiqlar ham yaratila boshladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqining shunday boy va qadimiy tarixga ega bo'lgan musiqiy an'analari ham mavjuddir. An'analar haqida so'z yuritilganda bu bebaho musiqiy merosimiz haqida to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. O'zbek musiqiy an'alarimizga xos quyidagi ayrim guruhlarini o'z ichiga oladi:

1. Folklor qo'shiqlari
2. Og'zaki an'anadagi professional musiqa
3. Dostonchilik

Xalq musiqasi shu xalqning orzu-umidi, tilaklari, turmush tarzi, axloqiy qarashlarini o'zida ifoda etadi va shuning uchun ham u xalqning og'zidan tushmay ajdoddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

- 1 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., 1992.
- 2 Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
- 3 Karimov I.A. Biz qurish va yaratish yo'lidan boraveramiz. T., 1995.
- 4 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., 1996.
- 5 Karimov I.A. Vatan sadjagoh kabi muqaddasdir. T., 1996.
- 6 Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1996.
- 7 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., 1997.
- 8 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998.
- 9 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999.
- 10 Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk

kelajakka ishonchdir. T., 2000.

- 11 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
- 12 Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.
- 13 Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston. 2001.
- 14 Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.
- 15 Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat.
- 16 Islom Karimov.O'zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O'zbekiston, 1998.-56-bet.

- 18 T. Ye. Solomonova "G'zbek musiqasi tarixi".T.1981.y.
- 19 Akbarov. I "Musiqalug'ati". Toshkent "O'qituvchi" 1997
- 20 Ibroximov O. «O'zbek xalqi musiqasi ijodi» T.1994y.
- 21 Fayziyev O. va boshqalar. «O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari» T.1992.
- 22 E. Gulmetov, T. Qobiljonova, SH. Ernazarov, A. Mavrulov Madaniyarshunoslik T; 2006 y.
- 23 O'zbek musiqasi tarixi xrestomatiyasi. Tuzuvchilar:

- T.Salamonova., R.Abdullayev. Toshkent “O‘qituvchi”, 1983.
- 24 O‘zbek xalq cholg’u musiqasi. Tuzuvchilar: Q. Olinboeva, F.
- 25 Fayziyev O. “Musika va tarbiya”. Istiqlol nashriyoti. Toshkent, 2004.
- 26 G. Sharipova, Musika o‘qitish metodikasi. TDPU –2005 yil.
- 27 Sh.Ro‘ziev. Xorshunoslik. –Toshkent, -O‘qituvchi –1987 yil.
- 28 M.A.Nurmatova «Musika o‘qitish metodikasi va maktab repertuar» fani bo‘yicha ma’ruzalar matni Ur.,2007yil
- 29 D.Omonullayev «Maktabda musika tarbiyasi metodikasidan ma’ruza tezisleri» T.,1990 yil
- 30 www: Ziyonet. Uz